



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOQLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT PEDIATRIYA  
TIBBIYOT INSTITUTI



RESPUBLIKA TIBBIY TA'LIMNI  
RIVOJLANTRISH MARKAZI



BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING  
BOLALAR JAMG'ARMASI

# O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini Covid-19 pandemiyasi sharoitida qayta tiklash bo'yicha

*maktabgacha ta'lif tashkilotlarining xodimlari uchun*

## QO'LLANMA



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi  
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
Tibbiy ta'lifni rivojlantirish markazi  
Toshkent pediatriya tibbiyat instituti  
UNICEF

**«TASDIQLAYMAN»**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligi fan va ta'lif  
bosh boshqarmasi boshlig'i  
KADRЛАR / *U.S. Ismailov* / U.S. Ismailov  
BOSHQARMASI / *17 iyul* / 2020



**«KELISHILDI»**


O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi  
tibbiy ta'lifni rivojlantirish  
markazi direktori  
*N. R. Yangiyeva*  
«*17 iyul*» 2020



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI  
FAOLIYATINI COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA QAYTA TIKLASH BO'YICHA  
(MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARINING XODIMILARI UCHUN)**

# **QO'LLANMA**

## **I QISM**



Toshkent – 2020

## **O'llanmani ishlab chiquvchi tashkilotlar:**

Ushbu qo'llanmani O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF) birgalikda ishlab chiqdilar.

*Qo'llanma COVID-19 pandemiyasi sharoitida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qayta tiklash bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan..*

## **Mualliflar:**

**Muxiddinova U.T.** – tibbiyot fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Bolalar salomatligini ta'minlash, xavfsiz, sog'lom ovqatlanishni tashkil etish va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i.

**Nasirova G.U.** – tibbiyot fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Bolalar salomatligini ta'minlash, xavfsiz, sog'lom ovqatlanishni tashkil etish va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi.

**Kurbanov B.J.** – tibbiyot fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi direktori o'rinnbosari.

**Ubaydullayeva S.A.** – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i va "Ambulator-pediatriya" kafedrasi dotsenti.

**Mahmudova D.I.** - tibbiyot fanlari nomzodi, UNICEF konsultanti

**Kim O.** – tibbiyot fanlari nomzodi, UNICEFning sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

## **Taqrizchilar:**

**Olimov K.T.** – tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinnbosari.

**Ikromov R.N.** – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligining Epidemiologik monitoring va profilaktika choralarini boshqarmasi boshlig'i.

# MUNDARIJA

KIRISH .....	4
MAQSAD VA VAZIFALAR .....	5
COVID-19 BO'YICHA QISQACHA MA'LUMOT .....	6
MTT FAOLIYATINI QAYTA TIKLASH BO'YICHA YUZASIDAN QAROR QABUL QILISHDA ASOSIY TAMOYILLAR .....	10
I. MTT XAVFSIZ FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH BO'YICHA CHORALAR.....	11
MTTda sog'lom turmush tarzi amaliyoti va gigiyena ko'nikmalarini o'rgatish .....	11
MTTda jismoniy masofani saqlash uchun sharoit yaratish va bolalarga ko'nikmalarini o'rgatish.....	13
COVID-19 pandemiyasi davrida MTTda tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi .....	14
MTT xonalarining sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligini ta'minlash.....	15
II. XODIMLARNI O'QITISH VA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA CHORALAR .....	15
O'qitish va qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadlari.....	16
Xodimlar o'qitilishi kerak bo'lgan masalalar.....	16
Xodimlarning sog'lig'i va ish qobiliyatini yaxshilashga oid maslahatlar .....	17
Foydalanillangan adabiyotlar .....	18
1-Illova .....	19
2-Illova .....	20

## QISQARTIRISHLAR RO'YXATI

JSST	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
MTT	Maktabgacha ta'lif tashkiloti
Yevro JSST	Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevropa mintaqaviy byurosi
MTV	Maktabgacha ta'lif vazirligi
SSV	Sog'liqni saqlash vazirligi
(SEOvaJSX)	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati
UNICEF	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi

## KIRISH

COVID-19 pandemiyasi butun dunyodagi bolalarning ta'lim olishi, himoyasi va farovonligi yo'lida favqulodda vaziyatni keltirib chiqardi. Ta'lim jarayonining uzelishi mamlakat iqtisodiyoti va umuman jamiyat uchun uzoq muddatli oqibatlarga olib keladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasiga koronavirusning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha Respublika maxsus komissiyasining qarori bilan karantin cheklovlarini yumshatish dasturi amalga oshirilmoqda. Ko'plab tashkilotlar, shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlar (MTT) faoliyati bosqichma-bosqich qayta yo'lga qo'yilmoqda.

COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq vaziyat MTTda bolalarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish uchun sabab bo'ldi. Bunday chora-tadbirlar shuningdek, kelajakda bolalar orasida virusli infeksiyalarni samarali ravishda profilaktika qilish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

MTT faoliyatini qayta tiklash, bolalarning uzluksiz ta'limining yagona tizimining muhim bosqichi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, MTT faoliyatini qayta tiklash bolalar uchun xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhitni ta'minlaydigan tarzda rejalashtirish kerak. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilar orasidagi xavfsiz masofa ularning ijtimoiy aloqalari, amaliy mashg'ulotlari va har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'yinlariga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Buning uchun o'quv rejasini moslashtirish, jismoniy masofani saqlash nuqtai nazaridan, o'yin va o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun sharoit ta'minlash talab etiladi. Shu bilan birga, ayni paytda, bolalarning maqbul darajada rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berish tamoyillariga muvofiq bo'lishi zarur.

Ushbu qo'llanmada asosiy e'tibor umumiy tamoyillarga, shuningdek, MTT faoliyatini qayta tiklashda inobatga olinishi lozim bo'lgan, amaliy choralgarda qaratiladi.

## MAQSAD VA VAZIFALAR

Ushbu qo'llanmaning **maqsadi** COVID-19 pandemiyasi davrida MTT faoliyatini tashkil etishda xavfsiz va qulay muhitni ta'minlashning asosiy tamoyillari va amaliy choralarini yoritib berishdir.

Mazkur qo'llanma quyidagi **vazifalarni** bajarishga yordam berishi kerak:

- MTT xodimlari bolalarning salomatligi va gigiyenasiga katta e'tibor berish orqali, to'liq rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tamoyillariga rioya etgan holda, bolalarga qulay va xavfsiz muhitni ta'minlashlari zarur;
- MTT xodimlari bolalarga ilk yoshlarda ta'lif berish va parvarish qilish dasturlarini amalga oshirishda sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlaydigan aniq chora-tadbirlar va tartibotlar majmuuni amalga oshirishlari kerak;
- MTT xodimlari o'quv jarayonini tashkillashtirishni COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq yangi talablarga moslashtirishlari kerak va tarbiyalanuvchilarga, ta'lif jarayonida o'yin uslubidan foydalangan holda, o'z sog'liqlarini saqlash bo'yicha foydali ko'nikmalarни о'rgatish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

## COVID-19 BO'YICHA QISQACHA MA'LUMOT

### 1. COVID-19 nima?

COVID-19 – bu 2019 yili aniqlangan koronavirusni keltirib chiqargan yuqumli kasallikdir. Bugungi kunda ushbu pandemiya dunyoning ko'plab mamalakatlariga talofat yetkazmoqda.

### 2. COVID-19ning qanday belgilari mavjud?

COVID-19ning eng keng tarqalgan belgilari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tana haroratining ko'tarilishi,
- quruq yo'tal,
- horg'inlik.

Nisbatan kamroq uchraydigan va ba'zi bemorlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan boshqa belgililar:

- o'zini quvvatsiz xis qilish,
- burun bitishi,
- bosh og'rishi,
- burun oqishi,
- tomoq og'rishi,
- mushaklardagi og'riqlar,
- nafas olishda qiynalish/xansirash,
- ich ketishi (diareya),
- ta'm yoki hid bilmay qolish,
- teridagi toshmalar,
- qo'l va oyoq barmoqlaridagi teri rangining o'zgarishi.

Mazkur belgililar odatda kuchli bo'lmaydi va asta-sekin paydo bo'ladi. Ba'zi insonlarda kasallik juda ham yengil belgililar bilan kechishi mumkin.

### 3. Agar menda COVID-19 belgilari mavjud bo'lsa, nima qilishim kerak va tibbiy yordam uchun qachon murojaat qilishim lozim?

Tana harorati ko'tarilgan va/yoki yo'talish va horg'inlik holatlari kuzatilayotgan har qanday yoshdagi insonlar zudlik bilan shifokorga murojaat qilishlari lozim.

### 4. COVID-19 qanday tarqaladi?

Insonlar COVID-19ni boshqa odamlardan yuqtirib olishlari mumkin. Kasallik COVID-19ga duchor bo'lgan inson yo'talganida, aksirganida yoki gapirganida yonidagi insonlarga havotomchi yo'li bilan yuqadi. Virusli tomchilar stollar, eshik tutqichlari va zina tutqichlari kabi predmetlar va yuzalarida bo'lishi mumkin. Odamlar bunday predmetlar va yuzalarni ushlaganlardan so'ng ko'zlari, burun yoki og'izlariga qo'l tekkizishlari orqali ushbu virusni yuqtirib olishlari mumkin.

## **5. COVID-19 ning hech qanday belgilari bo'limgan insondan uni yuqtirib olish mumkinmi?**

COVID-19 asosan mazkur kasallik belgilariiga ega bo'lgan insonlardan tarqaladi. Ammo, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kasallikning hech qanday belgilariiga ega bo'limgan insonlar ham virusni boshqalarga yuqtirishlari mumkin ekan. Hozircha bu qay darajada tez-tez sodir bo'lishi ma'lum emas.

## **6. COVID-19ga chalingan inson bilan yaqindan muloqotda bo'lgan bo'lsam, nima qilishim lozim?**

Agar siz COVID-19ni yuqtirib olgan inson bilan yaqindan muloqotda bo'lgan bo'lsangiz, siz ham bu kasallikni yuqtirib olgan bo'lishingiz mumkin. Bunday holatlarda uyda qolgan afzal. Boshqa insonlarga bu kasallikni yuqtirmaslik uchun imkon qadar tez yakkalanishingiz (o'zini izolyasiya qilish) katta ahamiyatga ega.

Agar siz bu kasallikni yuqtirib olganman deb o'ylasangiz va/yoki sizda mazkur kasallikning belgilari paydo bo'lgan bo'lsa, zudlik bilan shifokorga murojaat qilishingiz lozim.

## **7. Bolalar va o'smirlar COVID-19ni yuqtirib olishlari mumkinmi?**

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolalar va o'smirlarning ushbu kasallikni yuqtirib olish va uni boshqalarga yuqtirish ehtimoli huddi kattalardagi ehtimol bilan tengdir. Shuning uchun ular huddi kattalar kabi xavfsizlik qoidalari (qo'llarni yuvish, niqob taqish, odamlar gavjum bo'ladigan joylarga bormaslik, ijtimoiy masofani saqlash)ga rioya qilishlari lozim.

## **8. COVID-19ga qarshi vaksina, dori-darmon yoki uning davosi bormi?**

COVID-19ga qarshi maxsus muolaja mavjud emas. Ushbu kasallikning oldini olishi yoki uni davolashi mumkin bo'lgan vositalar ham mavjud emas. JSST har qanday dori vositalari, shu jumladan antibiotiklar yordamida o'zboshimchalik bilan davolanishni tavsiya qilmaydi.

## **9. COVID-19 yuqtirib olinsa, uning belgilari yuzaga chiqishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?**

Inson COVID-19ni yuqtirgan vaqtdan boshlab, odatda 5-6 kun ichida uning belgilari paydo bo'ladi, ammo bu muddat, 1 kundan 14 kungacha ham farqlanishi mumkin.

## **10.O'z himoyamni ta'minlash va kasallik tarqalishining oldini olish uchun nima qilishim mumkin?**

O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining rasmiy kanallari orqali COVID-19 tarqalishi bo'yicha so'nggi ma'lumotlardan xabardor bo'lib boring.

## **ZARUR EHTIYOT CHORALARI:**

- **QO'LLARINGIZNI TARKIBIDA SPIRT BO'LGAN MAXSUS** (spirit kon-sentratsiyasi 70%dan kam bo'limgan) **VOSITALAR YORDAMIDA MUNTAZAM RAVISHDA**, yaxshilab artib turing yoki qo'llaringizni sovunlab, toza suvda kamida 20 soniya davomida yuvning.

**Nega?** Qo'llarni sovunlab, oqar suvda yuvish yoki tarkibida spirit bo'lgan, maxsus vositalardan foydalanish qo'llaringizda bo'lishi mumkin bo'lgan viruslarni o'ldiradi.

- **NIQOB TAQIB YURING.** Niqoblarni har 2–3 soatda almashtirib turing.

**Nega?** Jismoniy masofa saqlash mumkin bo'limgan joylarda, masalan, jamoat transportida, do'konlarda yoki odamlar gavjum bo'lgan boshqa binolar ichida virusni yuqtirib olish ehtimoli oshadi.

- **BOSHQA INSONLAR BILAN ORANGIZDAGI MASOFANING KAMIDA 2 METR BO'LISHINI TA'MINLANG.**

**Nega?** Kimdir yo'talganida, aksirganida yoki gapirayotganida so'lagining mayda zarrachalarini atrofga sochadi va bu zarrachalar tarkibida virus bo'lishi mumkin. Agar siz bunday insonga juda yaqin turgan bo'sangiz, tarkibida COVID-19 virusi bo'lgan mayda zarrachalar bilan nafas olib yuborishingiz mumkin.

- **ODAMLAR GAVJUM BO'LGAN JOYLARNI CHETLAB O'TING.**

**Nega?** Tiqilinchda COVID-19 infeksiyasiga ega bo'lgan inson bilan muloqotga kirishingiz ehtimoli yuqoriroq va kamida 2 metrlik jismoniy masofani saqlash qiyinroq bo'ladi.

## ■ KO'ZLARINGIZ, BURNINGIZ VA OG'ZINGIZGA TEGINMANG.

**Nega?** Qo'llaringiz bilan turli yuzalarga, jumladan viruslar mavjud bo'lgan yuzalarga tegishingiz mumkin. Agar siz qo'llaringiz bilan ko'zлaringiz, burningiz va og'zingizga teginsangiz, virus tanangizga kirib olishi mumkin.

## ■ O'zingiz va atrofingizdagilar yo'talayotganda yoki aksirayotganda **OG'IZ VA BURUNNI TIRSAKDAN BUKILGAN QO'L YOKI BIR MARTALIK QOG'OZ DASTRO'MOL BILAN TO'SILGANIGA ISHONCH HOSIL QILING.**

**Nega?** Og'iz va burundan chiqadigan tomchilar virusni tarqatadi. Ushbu qoidalarga rioya etish orqali siz o'zingizni va atrofingizdagilarni gripp va COVID-19 kabi yuqumli kasalliklardan himoya qilgan bo'lasiz.

## ■ Sizda yo'tal, bosh og'rig'i, tana haroratining ko'tarilishi kabi COVID-19ning jiddiy bulmagan alomatlari kuzatilsa ham **UYDA QOLING**. Zudlik bilan tibbiy yordam uchun murojaat qiling yoki telefon orqali shifokor bilan maslahatlashing.

**Nega?** Boshqa insonlar bilan muloqotdan tiyilish orqali siz ularni COVID-19 virusi va boshqa viruslar yuqishi ehtimolidan himoya qilasiz.

## ■ Agar sizda tana haroratingizning oshishi, yo'tal, nafas qisishi kabilar kuzatilsa, **TIBBIY YORDAMGA MUROJAAT QILING VA SHIFOKORINGIZ BERGAN TAVSIYALARGA RIOYA ETING**. Dastlab, shifokorga qo'ng'iroq qilib olsangiz yaxshiroq bo'ladi.

**Nega?** Oldindan qo'ng'iroq qilib olish, davolovchi shifokoringizga sizni tezda kerakli tibbiyot muassasasiga yo'llash imkonini beradi. Bu sizni sog'ligingizni himoya qilish bilan birga, viruslar va boshqa infeksiyalar tarqalishining oldini olishga yordam beradi.

## MTT FAOLIYATINI QAYTA TIKLASH YUZASIDAN QAROR QABUL QILISHDA ASOSIY TAMOYILLAR

Ushbu tamoyillar, bir tomondan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim olishini samarali qo'llab-quvvatlash va farovonligini ta'minlash, boshqa tomondan esa sog'liq, gigiyena va jamiyatning umumiy xavfsizligi o'rtaSIDagi to'g'ri muvozanatni ta'minlash zaruriyatiga asoslanadi.

Pandemiya davrida MTTni ochish to'g'risidagi qaror mamlakatda va ushbu hududda epidemiologik vaziyatni tabaqlashtirilgan baholash asosida qabul qilinadi.

### MTT faoliyatini qayta tiklash quyidagi shartlar bilan ruxsat etiladi:

- MTT faoliyati mazkur Qo'llanmada va SanQvaM 0355-18 "O'zbekiston Respublikasida MTMni joylashuvi, tuzilishi va faoliyatini tashkillashtirishga oid sanitariya qoida va me'yordi"da, "COVID-19 pandemiyasi davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish faoliyatiga qo'yiladigan vaqtinchalik sanitariya-gigiyenik talablar"da ko'rsatilgan sanitariya-epidemiologik shartlarga rioya etgan holda, qayta yo'lga qo'yilishi mumkin.
- MTT faoliyatini qayta tiklashga, mazkur tashkilotda bolalarning xavfsiz holda bo'lishlari uchun tegishli shart-sharoitlar ta'minlangani to'g'risida MTT rahbariyati tomonidan imzolangan kafolat xati hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (SEOvaJSX) hududiy makazalari qarori bilan, ruxsat etiladi.

### MTT faoliyatini qayta tiklash uchun asosiy talablar

MTT faoliyati quyidagi me'yoriy hujjalarga muvofiq, sanitariya-epidemiologik va gigiyena talablariga rioya etilgan taqdirda, qayta tiklanadi:

1. SanQvaM 0373-20 "COVID-19 pandemiyasi davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish faoliyatiga qo'yiladigan vaqtinchalik sanitariya-gigiyenik talablar".
2. SanQvaM 0355-18 "O'zbekiston Respublikasida MTTni joylashuvi, tuzilishi va faoliyatini tashkillashtirishga oid sanitariya qoida va me'yordi".

Faoliyat qayta tiklashguncha, MTT barcha xodimlari Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (SEOvaJSX) markazlarining mutaxassislari ishtirokida COVID-19 pandemiyasi davrida sanitariya-gigiyena qoidalari hamda epidemiyaga qarshi choralar va xavfsizlik standartlari bo'yicha o'qitilishlari kerak.

Faoliyat, bolalarning MTT sharoitida xavfsiz holda bo'lishlariga oid barcha talablarning bajarilganligi to'g'risida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (SEOvaJSX) hududiy markazlari tomonidan qaror qabul qilinganidan so'ng, qayta tiklanadi.

MTT rahbariyati, hududiy maktabgacha ta'lim bo'linmalari (MTB) xodimlari, yashash joyi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalari (DPM) mutaxassislari bolaning qonuniy vakillari orasida COVID-19 pandemiyasi va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalgan paytda uyda qolishning afzalliklari, shuningdek, jiddiy zarurat bo'lmagan taqdirda, bolalarning MTTga qatnashdan tiylishlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishlari lozim.

Katta yoshdagi xodimlar va / yoki yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari kasalliklariga, surunkali kasalliklarga ega xodimlarning shunday holatlari bilan bog'liq xavflarni baholash uchun, o'z shifokorlari bilan maslahatlashish imkoniyatlari yo'lga qo'yilishi lozim.

## I. MTT XAVFSIZ FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH BO'YICHA CHORALAR

### **MTTda sog'lom turmush tarzi amaliyoti va gigiyena ko'nikmalarini o'rgatish**

COVID-19ga qarshi profilaktika choralari MTT oldiga yangi talablarni qo'ydi – maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zları va atrofidagilarning shaxsiy makonini himoya qilishga o'rgatish.

Tegishli gigiyena amaliyotini maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv dasturiga va kundalik tartibiga kiritish barqaror gigiyena ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

**Bolalarga COVID-19ga qarshi asosiy profilaktika choralari nimalardan iborat ekanini o'rgatish kerak:**

- **Qo'llaringizni muntazam ravishda, kamida 20 soniya davomida, sovun bilan yuving** (1-surat). Qo'l yuvish vaqtı kamida 20 soniya bo'lishi uchun, bolalar bilan qandaydir bir qo'shiqni yod oling.




1-surat. Qo'l yuvish qoidasi


- Bolalar kundalik hayotining bir qismi sifatida, qo'l gigiyenasini tez-tez amalga oshirib turish jadvalini tuzing. Bolalarni har ovqatlanishdan oldin va keyin, hojatxonaga borgandan, o'ynab bo'lgandan, sayr qilib kelganlaridan so'ng, albatta qo'llarini sovun bilan yuvishga odatlantiring.

- Bolalarga takrorlab turing: yo'talganda va aksirganda, burun va og'izni salfetka, ro'molcha yoki tirsakni bukgan holda berkitish kerak (2-surat) va salfetkani darhol qopqoqli chiqindi idishiga tashlash zarur. Undan so'ng qo'llarni spirtli antiseptik vosita bilan tozalash yokisovun va suv bilan yuvish lozim. Bolalarga nafas olish yo'llari kasalliklarini keltirib chiqaruvchi viruslar qo'l berib ko'rishish va qo'llar bilan ko'z, burun va og'izga teginish orqali yuqishi mumkinligini tushuntiring. Ularni o'z yuzlariga tegmaslikga o'rgating (bu butun umur uchun foydali ko'nikmadir).

## TO'G'RI AKSIRISH VA YO'TALASH



## QO'LLAR BILAN TENGMANG!



2-surat. Nafas olish yo'llari gigiyenasi qoidalari

- Bolalarga bir-biriga tegmay turib salomlashishni o'rgating (salomlashishni ifoda etib, qo'llaringizni silkiting, boshingizni qimirlating yoki ta'zim qiling).
- Bolalar bilan qo'llarni antiseptik vositalar yordamida tozalash va salfetkalardan foydalanishni mashq qiling.
- Bolalarga nima uchun termometriya, qo'llarni tez-tez yuvish va ishlov berish, MTT xodimlarining niqoblarda yurishi, xonalarni shamollatib turish lozimligi kabi ma'lum choralar, ularga o'zlarining sog'lig'ini, shuningdek tarbiyalovchilarining, ota-onalarining va boshqa oila a'zolarining sog'lig'ini saqlashga yordam berishini tushuntiring.

- O'yin uslubida bolalarga kasallikning belgilarini (aksirish, yo'tal, isitma) namoyish eting va nima qilish kerakligini, bemorga qanday qilib yordam va tasalli berish hamda qayg'udosh bo'lismumkinligini tushuntiring.
- Bolalarga nima uchun MTT xodimlarining barchasi niqoblardan foydalanishi va niqob rejimiga riosa qilishi lozimligini tushuntiring. Nima uchun bolalarga yuzga taqiladigan niqobdan foydalanish tavsiya etilmasligini ham tushuntiring.
- Ota-onalar nima uchun MTT hududiga kira olmasligini tushuntiring.

## **MTTda jismoniy masofani saqlash uchun sharoit yaratish va bolalarga ko'nikmalarini o'rgatish**

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatan jismoniy faol bo'ladilar. Bolalar o'rtasida, bolalar, tarbiyachilar va boshqa xodimlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri jismoniy muloqotni cheklash oson ish emas. Jismoniy masofani saqlash bo'yicha ko'rilaqdan choralar oqilona chegaralar doirasida bo'lishini ta'minlash zarur. Ushbu choralar bolalarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ta'lif olish, o'yinlar o'ynash va muloqotga kirishishlariga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar nafaqat ta'lif olishga, balki g'amxo'rlik ko'rsatilishiga ham muhtojdirlar. Kichkintoyga kiyim almashtirishda, uni ovqatlantirishda yoki yig'laganda ovutishda yordam berish nuqtai nazaridan, jismoniy masofani saqlash maqsadga muvofiq bo'lmasligi va, umuman olganda, iloji ham bo'lmasligi mumkin.

Tarbiyachilar va MTT rahbarlari xodimlar va bolalar o'rtasidagi oqilona masofani qanday saqlash kerakligini hal qilishda ziyrak bo'lishlari zarur.

Guruhdagi bolalar sonining ko'payishi bilan koronavirusga chalinish xavfi ortadi.

### **Majburiy choralar quyidagilardan iborat:**

- *bolalarni MTTga kutib/qabul qilib olishda va uylariga kuzatishda jismoniy masofani saqlash choralarini ko'rish;*
- 
- *stollar, stullar va to'shaklar orasida masofa bo'lishini ta'minlash – kamida 1 m;*
- *bolalarni kichik guruhlarga ajratish orqali, mashg'ulot va o'yinlarni navbatma-navbat o'tkazish;*
- *o'shni guruhlardagi bolalar bilan aralashishni cheklash;*
- *ochiq havoda ko'proq tadbirlarni o'tkazish;*
- *MTTda ommaviy tadbirlarni vaqtincha cheklash;*
- *xodimlar o'rtasidagi aloqani cheklash maqsadida, umumiyoq ovqatlanish yeridan ovqatni qabul qilb olish jadvalini tuzish.*

## **COVID-19 pandemiyasi davrida MTTda tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi**

MTT rahbariyati ota-onalarni epidemiya davrida bolalarning uyda qolishi afzallikkari to'g'risida xabardor qilishi lozim, chunki bu kasallanish xavfi bilan bog'liqdir. Ota-onalar bolani MTTga qatnashi yuzasidan qabul qilgan qarorlari uchun o'zlari javobgar ekanliklarini rasman tasdiqlaydilar.

## MTT tibbiyot xodimi quyidagilarga javobgar:

- tarbiyalanuvchilar/xodimlar uchun **ertalabki saralashni o'tkazish** va agar kasallik belgilari mavjud bo'lsa ( $37^{\circ}\text{C}$  dan yuqori tana harorati va/yoki O'RIning boshqa alomatlari bo'lsa – o'zini quvvatsiz xis qilish, yo'tal, tomoq og'rig'i va boshqalar), bola / xodim MTTga kiritilmaydi;
- tarbiyalanuvchilar/xodimlarning **qo'llariga gigiyenik ishlov berish jadvalini nazorat qilish** (qo'llarni sovun bilan yuvish yoki har soatda spirtli antiseptik vosita bilan ishlov berish), har ovqatdan oldin, hojatxonaga borgandan, o'ynab bo'lgandan, sayr qilib kelganlardan so'ng, albatta qo'llarini sovun bilan yuvish;
- kun davomida **bolalarning holatini kuzatish**, tana haroratini kamida 2 marta o'lchash;
- **agar xodimda / tarbiyalanuvchida kasallik belgilari paydo bo'lsa**, ularni darhol yakkalash xonasiga (izolyator) joylashtirish. Agar yakkalash xonasi bo'lmasa, tarbiyalanuvchi / xodim tibbiyot hamshirasi xonasiga yoki yakkalash uchun mo'ljallangan boshqa xonaga joylashtiriladi;
- kasallik belgilari bo'lgan **taqdirda tarbiyalanuvchining ota-onasini chaqirish** hamda hududiy SEOvaJSXga xabar berish;
- bolaning nafas olishi qiyinlashsa/nafasi qisilsa, ko'krak qafasida og'riq bo'lsa, kuchli qorin og'rig'i kuzatilsa va seruyqu bo'lsa, **zudlik bilan tez tibbiy yordamni chaqirish zarur**;
- **kasallik belgilari namoyon bo'lgan xodimlarni ishdan chetlatish** va hududiy SEOvaJSXga xabar berish;
- **xodimlar ish kiyimlarini kiyib olishlarini va niqoblarni har 2 soatda o'zgartirish jadvaliga muvofiq**, butun ish kuni davomida niqob rejimiga rioya etishlarini nazorat qilish. Bunda, foydalanilgan dokali niqoblar dezinfeksiyalash eritmasiga ivitiladi, so'ngra yuvib, dazmollanadi, bir martali niqoblar esa 30 daqiqa davomida 1% dezinfeksiyalash eritmasiga bo'ktiriladi, so'ngra yo'q qilinadi;
- **tarbiyalanuvchilar kiyimlari va poyafzallarining almashadirishini nazorat qilish**;
- MTT barcha xonalarini, suv, sovun, yuvuvchi va dezinfeksiyalash vositalaridan foydalangan holda, **har kuni 4 marta nam tozalashni nazorat qilish** (2-llova):
  - suv, sovun va yuvuvchi vositalaridan foydalangan holda, 3 marta nam tozalash ishlari;
  - barcha xonalarni har ish kunining yakunida dezinfeksiya vositalaridan foydalangan holda, 1 marta tozalash;
- tez-tez ifloslanadigan yuzalarni **4 marta dezinfeksiya qilish ishlarini tashkil etish**.

## MTT xonalarining sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligini ta'minlash

COVID-19 pandemiyasi davrida MTT barcha xonalarining sanitariya-gigiyenik xavfsizligini ta'minlash uchun kuchaytirilgan choralar talab etiladi:

- MTT toza suv va yuvuvchi vositalari zaxirasi bilan ta'minlanadi;
- MTTga kirish joyida zararsizlantiruvchi gilamchalar to'shab qo'yiladi va ularga kuniga, kamida 2 martadezinfeksiya eritmasi quyib, namlab turiladi;

- MTT ochilishidan oldin MTTning barcha xonalari va hududida umumiy tozalash va zararsizlantirish ishlari amalga oshiriladi;
- o'ynichoqlar, didaktik materiallar va boshqa jihozlar ro'yxati, kunlik samarali sanitar ishlov berish va zararsizlantirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qayta ko'rib chiqiladi (faqat oson yuviladiganlari qoldiriladi). O'ynichoqlar, didaktik materiallar va boshqa jihozlarni boshqa guruhlardagilari bilan aralashib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.
- MTTning barcha xonalarida, suv,sovun,yuvish va dezinfeksiyalash vositalaridan foydalangan holda, har kuni 4 marta nam tozalash ishlari tashkil etiladi (2-IIova):
  - suv,sovun va yuvish vositalaridan foydalangan holda, 3 marta nam tozalash ishlari;
  - barcha xonalarni har ish kunining yakunida dezinfeksiya vositalaridan foydalangan holda, 1 marta tozalash;
- tez-tez ifloslanadigan sathlarni (eshik va deraza tutqichlari, romlar, zina tutqichlari va panjaralari, stol va chiroq o'chirib-yoqgichlar) 4 marta dezinfeksiya qilish ishlari tashkil etiladi;
- dezinfeksiyalash vositalarining 1% eritmasi yordamida nam tozalash kechquringi va kunduzgi uyqudan keyin yotoqxonalarda, guruhda yoki umumiy ovqatlanish xonasida – har ovqatdan keyin, amalga oshiriladi;
- har ikki soatda xonalar shamollatib turiladi, ob-havo sharoiti qoniqarli bo'lgan taqdirda, tarbiyalanuvchilarni ochiq derazali xonada bo'lishlari ta'minlanadi. Noqulay ob-havo sharoitida xonalarni to'liq shamollatish, bolalar yo'qligida amalga oshiriladi;
- ish kuni yakunida MTT shiypon va o'zin maydonchalarini har kuni tozalash va dezinfeksiya qilish ishlari amalga oshiriladi;
- ovqatlanish uchun ishlatiladigan idishlar har kuni dezinfeksiyalash vositasiga qo'shilgan eritma yordamida yuviladi.

## II. XODIMLARNI O'QITISH VA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA CHORALAR

COVID-19 pandemiyasi sharoitida MTT faoliyatini qayta yo'lga qo'yish ancha murakkab ish. Pandemiya MTT rahbariyati, tarbiyachilar va boshqa xodimlarning, farzandlari MTTga qatnaydigan oilalar bilan o'zaro munosabatlarda bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

Faoliyatni qayta tiklashning dastlabki davri ayniqsa qiyin kechadi, bunda uzoq vaqt tanaffusdan keyin MTTga qaytgan bolalar ham, yangi ish sharoitlari va usullarini o'zlashtirishga to'g'ri kelayotgan xodimlar ham, ruhiy zo'riqish holatida bo'ladilar.

MTT faoliyatini qayta tiklashdan oldingi ustuvor vazifa – ***xodimlarni COVID-19 pandemiyasi paytida sanitariya-gigiyena qoidalari hamda epidemiyaga qarshi choralar va xavfsizlik standartlariga o'rgatishdir.***

**O'qitish va qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadlari:**

- *MTTda bolalarni ta'lim olishi va parvarish qilinishi jarayonida xavfsizlik va sog'liqni saqlashni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish qobiliyat;*

## MTM faoliyatini COVID-19 pandemiyasi sharoitida qayta tiklash bo'yicha qo'llanma

- *ta'lif berishda o'zin yondashuvini tadbiq etish hamda bolalarning salomatligi va gigiyenasiga katta e'tibor berish orqali, ularning to'liq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va farovonligini ta'minlash tamoyillariga rioya etish;*
- *xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, o'quv dasturlarini amalga oshirish qobiliyati;*
- *COVID-19 pandemiyasi davrida xodimlarning sog'lig'i va ish faoliyatini qo'llab-quvvatlash qobiliyati.*

### Kimlar o'qitilishi kerak

MTT faoliyati qayta tiklanishiga qadar, ***barcha xodimlar o'qitilishi kerak***: rahbariyat, ma'muriyatning boshqa xodimlari, tarbiyachilar va o'quv jarayoniga jalb etilgan barcha mutaxassislar, tibbiyot xodimlari, tarbiyachilar yordamchilari, texnik xodimlar va oshxona ishchilari.

MTT rahbari xodimlarni doimiy ravishda kasbiy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularning psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlashi va ruhiy-ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda harakat qilishi lozim.

MTT, ularning xodimlari o'qitilmaguncha, o'z faoliyatlarini qayta yo'lga qo'ymay turishlari kerak. MTT fayoliyati qayta ochilgandan so'ng, xodimlar, shubhasiz, tajriba almashish va yanada ko'proq ma'lumot/tavsiyalar olish yo'lida qo'shimcha imkoniyatlarga ehtiyoj sezadilar; bunday imkoniyatlar ularga dasturlarni samarali ravishda moslashtirishga yordam beradi.

### Xodimlar o'qitilishi kerak bo'lgan masalalar:

- ***Har kuni sog'lom turmush tarzi va gigiyena qoidalariga amal qilish*** (bolalarga yangi gigiyena tadbirlari va foydali ko'nikmalarni o'rgatish; gigiyena va xavfsizlik masalalari yuzasidan xodimlarning o'zini o'qitish va qo'llab-quvvatlash);
- ***COVID-19 pandemiyasi davrida bolalar va MTT xodimlari uchun profilaktika choralari va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish*** (ertalabki saralash; bemor bolalar va xodimlarni aniqlash va yakkalash tartib-qoidalarini bilish; kasallikning asosiy belgilarini bilish, bola bemor bo'lib qolsa, ota-onalarga ma'lumot berish va hokazo);
- ***MTT xonalaring sanitariya-gigiyenik xavfsizligini ta'minlash choralari*** (xonalarini, sirtlarni tozalash va dezinfeksiya qilish, dezinfeksiya uchun eritmalar tayyorlash, umumi ovqatlanish joyining ishlashiga qo'yiladigan talablar).

MTT xodimlaridan xavfsizlik choralarini ta'minlash va nafaqat bolalarning sog'lig'ini, balki o'zlarning sog'lig'ini ham nazorat qilish talab etiladi. Yoshi yoki surunkali kasalligi tufayli yuqori xavf ostida bo'lgan xodimlarga alohida e'tibor berilishi lozim.

### Xodimlarning sog'lig'i va ish qobiliyatini yaxshilashga oid maslahatlar

Xodimlar o'z imkoniyatlarining chegaralarini bilishlari va stressli vaziyatlarda o'zlariga yordam bera olishga qodir bo'lishlari juda muhimdir. Quyida xodimlarning sog'lig'i va ishga layoqatini saqlash uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan tavsiyalar keltiriladi:

#### 1. NAFAS OLİSH MASHQINI BAJARING:

- *hech kim sizni bezovta qilmaydigan qulay joyni toping;*
- *nafas olishga diqqatni jamlang, chalg'imaslikka harakat qiling, telefonni biron joyga olib qo'ying;*

- *burun bilan nafas oling, beshgacha sanang;*
- *keyin besh soniya davomida nafasni og'iz orgali asta sekin chiqaring;*
- *3 va 4-bosqichlarni kamida bir daqiqa davomida takrorlang.*

**2. BOSHQA ODAMLAR BILAN SUHBATLASHING.** Odamlar o'ttasidagi bog'liqlik bizning barqarorligimizning asosiy tarkibiy qismidir. Jismoniy masofaga rioya qilish bugungi kunnig asosiy sharti bo'lsa-da, siz o'z telefoningiz yoki kompyuteringiz yordamida oilangiz va yaqinlaringiz bilan aloqada bo'lishni davom ettira olasiz. Muntazam ravishda qo'ng'iroqlashish vaqtini kelishib oling, bir-biringiz bilan nafaqat o'zingizning holatingiz haqida, balki siz uchun umumiyligi bo'lgan boshqa mavzular haqida ham so'zlashing. Birgalikda kulishing, chunki shu tufayli siz bir-biringizga bunday qiyin damlarda nihoyatda zarur bo'lgan quvonchni olib kelasiz.

**3. TO'G'RI UXLANG.** Uyqu gigiyenasi qoidalariga binoan, kishiga kuniga 7-8 soat uxlash tavsiya etiladi, xira yorug'lik va xona salqin bo'lishi kerak. Oxirgi ovqat yotishdan kamida ikki soat oldin tanovvul qilinishi lozim. Uyquga yotishdan bir soat avval dush qabul qilish lozim, kechasi ko'p suv ichmaslik kerak. Smartfoningiz bilan uxlamang. Buning o'rniغا, tinchlantiradigan musiqa tinglang.

**4. BOSHQALARDAN O'RGANING!** Yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning ijobiy misollarini payqashga va tadbiq etishga harakat qiling. Bu sizga ruhingizni tetik saqlashga, ish samaradorligingizni oshirishga va ishlashda davom etishingizga yordam beradi.

**5. HAMMA NARSADA IJOBIY TOMONLARNI AXTARING.** Ha, ehtimol atrofimizdagি narsalarni o'zgartira olmasligimiz mumkin, lekin o'zimizda sodir bo'layotgan holatlarga ta'sir o'tkaza olamiz.

**Eng muhimi, esda tutingki, agar siz o'zingizga birinchi bo'lib yordam bersangiz,  
boshqa odamlarga ham yaxshiroq yordam bera olasiz va bolalarni tarbiyalashda  
samaraliroq bo'lasiz!**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SanQvaM 0355-18 "O'zbekiston Respublikasida MTTni joylashuvi, tuzilishi va faoliyatini tashkillashtirishga oid sanitariya qoida va me'yorlari".

2. SanQvaM 0373-20 "COVID-я19 pandemiyasi davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish faoliyatiga qo'yiladigan vaqtinchalik sanitariya-gigiyenik talablar"

3. Maktabgacha ta'lim muassasalari va bolalar bog'chalarining COVID-19 dan so'ng qayta ochilishi bo'yicha Qo'llanma.

[https://www.unicef.org/romania/media/2616/file/](https://www.unicef.org/romania/media/2616/file;)

4. Maktablarni qayta ochish asoslari, 2020 yil, aprel.

<https://www.unicef.org/media/68366/file/Framework-for-reopening-schools-2020.pdf>

5. COVID-19 sharoitida maktablarda jamoat salomatligini ta'minlash choralari yuzasidan mulohazalar, 2020 yil, may.

<https://www.who.int/publications-detail/considerations-for-school-related-public-health-measures-in-the-context-of-covid-19>

6. Yangi COVID-19 koronavirusining avjlanishi sharoitida aholiga, uy sharoitida bemorlarni parvarish qilishda va tibbiy yordam ko'rsatishda, niqoblardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar.

[https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/330987/WHO-nCov-IPC\\_Masks-2020.1-rus.pdf](https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/330987/WHO-nCov-IPC_Masks-2020.1-rus.pdf)

7. COVID-19 avjlanishi sharoitida bemorlarni uzoq muddatli parvarishlash muassasalarida infeksiya profilaktikasi va infeksiya nazorati.

[https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/331508/WHO-2019-nCoV-IPC\\_long-term\\_care-2020.1-rus.pdf](https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/331508/WHO-2019-nCoV-IPC_long-term_care-2020.1-rus.pdf)

# COVID-19 pandemiyasi davrida MTT xodimlari uchun o'quv-mashg'ulot DASTURI

Mashg'ulot nomi	Davomiyligi
<b>I. MTT xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha choralar</b>	
MTTda sog'lom turmush tarzi amaliyoti va gigiyena ko'nikmalarini shakllantirib borish (jismony muloqotga kirishmay salomlashish, qo'l yuvish qoidalari va hokazolarni o'rgatish)	10 daqiqa
MTTda jismony masofani saqlash uchun sharoit yaratish va bolalarga ko'nikmalarini o'rgatish (bolalarni qabul qilish jadvali, guruhlarni shakllantirish, bolalarni o'qitish paytida bir-birlaridan uzoqroqda bo'lishlari uchun sharoitlar yaratish)	10 daqiqa
COVID-19 pandemiyasi davrida MTTda tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi (ertalabki saralash, bemor bolalarni / xodimlarni yakkalashni o'rgatish va tartibotlarga rioya etish)	10 daqiqa
MTT xonalarining sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligini ta'minlash (xonalarni, sirtlarni tozalash va dezinfeksiyalash, dezinfeksiyalovchi eritmalar tayyorlash, umumiy ovqatlanish joyi faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan talablar)	10 daqiqa
<b>II. Xodimlarni o'qitish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar</b>	
O'qitish va qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadlari	10 daqiqa
Xodimlar o'qitilishi kerak bo'lgan masalalar	
Xodimlarning sog'lig'i va ish qobiliyatini yaxshilashga oid maslahatlar	

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DEZINFEKSION VOSITALARIDAN ISHCHI ERITMALARINI TAYYORLASH \*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida, asosan, tayyorlanishi qulay bo'lib, uzoq muddat davomida o'z ta'sir kuchini yo'qotmaydigan dezinfeksiya vositalaridan foydalilanildi.

Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida quyidagi vositalardan keng foydalilanildi:

1. tarkibida xlor saqllovchi natriy gipoxloriti va kal'siy gipoxloriti;
2. yangi avlod dezinfeksiyon vositalaridan «ABK-ekstra»;
3. dezinfeksiyon vositalarining tabletkalashtirilgan shakkllari: «ABK-xloraktiv»; «Bio-xloraktiv»; «Super-xlor»; «Javel» va boshqa vositalar.

### Natriy gipoxloritli dezinfeksiyalash eritmasini tayyorlash

Natriy gipoxloritining yoki kal'siy gipoxloritining yangi partiyasi olinganda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining (SEOvaJSX) hududiy markazi laboratoriyasida dezinfeksiyon vositasining ushbu partiyasi tarkibida aktiv moddaning foizini aniqlash lozim.

Tarkibida xlor saqllovchi natriy gipoxlorit yoki kal'siy gipoxloritidan tayyorlanadigan ishchi dezinfeksiya eritmalar, asosiy vositadagi faol xlor miqdorini hisobga olgan holda, quyidagi formula bo'yicha tayyorlanadi:

$$\frac{\text{dezinfeksiyalash eritmasining faolligi}}{\text{dezinfeksiyalash vositasining faolligi}} \times 1000 \text{ ml SUV} .$$

Masalan, tarkibida 12 foiz faol xlor mavjud bo'lgan natriy gipoxloritidan 1 litr 1%-li ishchi eritmasini tayyorlash uchun kerakli natriy gipoxloriti miqdorini hisoblab chiqamiz.  
(1% \* 1000 мл) / 12 % ≈ 90 мл.

1. 1%-li ishchi eritmani 12%-li natriy gipoxloritiga bo'lamiz va 1000 ml SUVga ko'paytiramiz. Xisoblarga ko'ra, **1 litr 1%-li ishchi eritmasini tayyorlash uchun 90 ml natriy gipoxloriti zarur bo'ladi**. Maxsus sig'imga 90 ml gipoxlorit natriy konsentratidan solinib, **unga 910 ml SUV qo'shiladi**. Shunda **1 litr 1%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi**.
2. **10 litr 1%-li ishchi eritmani tayyorlash uchun** markirovkasi bor sig'imga **900 ml natriy gipoxlorit** konsentratidan quyiladi va **10 litrga yetgunicha SUV qo'shiladi** (ya'ni 9100 ml SUV).
3. 12%-li natriy gipoxloritidan, formulaga muvofiq, **1 litr 3%-li ishchi eritmasini tayyorlash uchun 270 ml natriy gipoxlorit konsentratiga 730 ml SUV qo'shiladi**. Natijada 1 litr 3%-li ishchi eritma hosil bo'ladi.
4. **10 litr 3%-li ishchi eritmani tayyorlash uchun** markirovkasi bor idishga **2700 ml natriy gipoxlorit konsentrati** quyiladi va 10 litrga yetgunicha iliq SUV bilan to'ldiriladi (ya'ni 7300 ml SUV).

**Eritmalar 1 ish kuni davomida saqlanadi.**

Dezinfektion eritmalar saqlanadigan idishlar usti maxkam berkitilgan xolda quyosh nurlari tushmaydigan joyda saqlanadi.

**Tarkibida xlor saqlamaydigan, yangi avlod dezinfeksiya vositalaridan bo'lgan «ABK-ekstra» konsentratidan ishchi eritmalarini tayyorlash ushbu vositaning uslubiy qo'llanmasi asosida olib boriladi:**

- 1. 1 litr 2%-li ishchi eritmasini tayyorlash: 20 ml «ABK-ekstra» konsentratiga 980 ml suv qo'shiladi.** Natijada 1 litr "ABK ekstra" vositasining 2%-li ishchi eritmasi hosil bo'ladi.
- 2. 10 litr 2%-li ishchi eritmani tayyorlash uchun markirovkasi bor sig'imga 200 ml «ABK-ekstra» konsentrati quyiladi va 10 litrga yetgunicha iliq suv qo'shiladi (ya'ni 9800 ml suv).**
- 3. 1 litr 3%-li ishchi eritmasini tayyorlash: 30 ml «ABK-ekstra» konsentratiga 970 ml suv qo'shiladi.** Natijada 1 litr 3%-li ishchi eritma hosil bo'ladi.
- 4. 10 litr 3%-li ishchi eritmani tayyorlash uchun markirovkasi bor sig'imga 300 ml "ABK-ekstra" konsentrati quyiladi va 10 litrga yetgunicha iliq suv qo'shiladi (ya'ni 9700 ml suv).**

«ABK-ekstra»dan tayyorlangan ishchi eritmalaridan **14 kun davomida** foydalanish mumkin.

<b>«ABK-ekstra» konsentratidan tayyorlangan ishchi eritmalarining qo'llanilishi</b>			
<b>Ob'ektlar</b>	<b>Ishchi eritma konsentratsiyasi, %</b>	<b>Zararsizlantirish vaqt, daq.</b>	<b>Zararsizlantirish usuli</b>
Bino xonalaridagi yuzalar, qattiq jihozlar	3,0	30	Artish yoki sepish
O'yinchoqlar	3,0	30	Bo'ktirish
Ovqat qoldiqlari bo'limgan idishlar	2,0	60	Bo'ktirish
Biologik suyuqliklar bilan ifloslanmagan oqliklar	2,0	60	Bo'ktirish
Biologik suyuqliklar bilan ifloslangan oqliklar	2,0	90	
Sanitariya-texnika jihozlari	3,0	30	O'rta 15 daqiqa tanaffus bilan ikki marta artish, o'rta 15 daqiqa tanaffus bilan ikki marta sepish.
Yig'ishtiruv anjomlari	3,0	45	Bo'ktirish
Dezinfeksiyalovchi gilamcha	3.0	yuzasining qurishiga qarab	Namlanadi

## «ABK- xloraktiv» vositasidan dezinfeksion eritmalarini tayyorlash:

«ABK-xloraktiv» tabletka yoki granula shaklida ishlab chiqariladi.

1. **0,015%-li dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.** 10 litr suvgaga «ABK-xloraktiv»ning 1 tabletkasi yoki 1 o'lchov qoshiq granulalari qo'shiladi. 10 litr 0,015%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi.
2. **0,03%-li dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.** 10 litr suvgaga «ABK-xloraktiv»ning 2 tabletkasi yoki 2 o'lchov qoshiq granulalari qo'shiladi. 10 litr 0,03%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi.
3. **0,06%-li dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.** 10 litr suvgaga «ABK-xloraktiv»ning 4 tabletkasi yoki 4 o'lchov qoshiq granulalari qo'shiladi. 10 litr 0,06%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi.
4. **0,1%-li dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.** 10 litr suvgaga «ABK-xloraktiv»ning 7 tabletkasi yoki 7 o'lchov qoshiq granulalari qo'shiladi. 10 litr 0,1%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi.
5. **0,2%-li dezinfeksiya eritmasini tayyorlash.** 10 litr suvgaga «ABK-xloraktiv»ning 14 tabletkasi yoki 14 o'lchov qoshiq granulalari qo'shiladi. 10 litr 0,2%-li dezinfeksiya eritmasi hosil bo'ladi.

**«ABK-xloraktiv»dan tayyorlangan ishchi eritmalaridan 3 kun davomida foydalanish mumkin.**

Boshqa turdag'i yangi avlod dezinfektion vositalari ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalariga muvofiq ishlatiladi.

---

\* Ushbu ruyxatga kiritilmagan dezinfeksiyalash vositalari ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qo'llaniladi.



**«ABK-xloraktiv» vositasidan tayyorlangan dezinfeksiyon eritmalarining qo'llanilishi**

Ob'ektlar	Ishchi eritma konsentrasiysi, %	Zararsizlantirish vaqt, daq.	Zararsizlantirish usuli
Bino xonalaridagi yuzalar, qattiq jihozlar	0,03	30	Artish yoki sepish
O'yinchoqlar	0,06	15	Bo'ktirish
Ovqat qoldiqlari bo'lмаган idishlar	0,015	15	Bo'ktiriladi
Biologik suyuqliklar bilan ifloslanmagan oqliklar	0,015	15	Bo'ktirish
Biologik suyuqliklar bilan ifloslangan oqliklar	0,015	30	
Sanitariya-texnik jihozlar	0,1	30	O'rtada 15 daqiqa tanaffus bilan ikki marta artish, o'rtada 15 daqiqa tanaffus bilan ikki marta sepish
Yig'ishtiruv anjomlari	0,1	30	Bo'ktirish
Dezinfeksiyalovchi gilamcha	0,2	Gilamcha yuzasining qurishiga qarab	Namlanadi




O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi  
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
Tibbiy ta'lifni rivojlantirish markazi  
Toshkent pediatriya tibbiyat instituti  
UNICEF

**«TASDIQLAYMAN»**

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha ta'lif vazirligining  
Bolalar salomatligini ta'minlash, xavfsiz,  
sog'liom ovqatlanishni tashkil etish va  
ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif  
muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish  
boshqarmasi boshlig'i  
  
U.Muxiddinova  
  
2020 y

**«KELISHILDI»**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
ta'lif vazirligining Ta'lif jarayoni  
sifatini ta'minlash va innovatsion  
pedagogik texnologiyalarini joriy etish  
boshqarmasi boshlig'i.  
  
V.Kim  
21 uforse 2020 y

**COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI  
QAYTA TIKLASH TO'G'RISIDA**

(MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING XODIMLARI UCHUN)

# **QO'LLANMA**

## **II QISM**

### **COVID-19 PANDEMIYA DAVRIDA BOLALARNING FAROVONLIGINI VA RIVOJLANISHINI TA'MINLASH**

## **Ishlab chiqaruvchi TASHKIOTLAR:**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF) ushbu qo'llanmani birgalikda ishlab chiqdilar.

*Qo'llanma COVID-19 pandemiyasi sharoitida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini qayta tiklash bo'yicha maktabgacha ta'lif tashkilotlarining xodimlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan.*

## **Mualliflar:**

**M.X.Tadjieva** – Pedagogika fanlari nomzodi, Pedagog kadrlar sifatini oshirish va pedagogika kollejlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i.

**G.G.Radjabova** – Toshkent shahridagi 289-son ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif tashkiloti direktori.

**M.A.Ismoilova** – Tibbiyot fanlari nomzodi, UNICEFning milliy maslahatchisi.

**B.A.Nazarova** – Erta yoshdagি bolalarni rivojlantirish va ta'lif masalalar bo'yicha maslahatchi, UNICEFning O'zbekistondagi maslahatchisi.

**S. V. Pak** – Puchon universiteti, Maktabgacha ta'lif kafedrasи pedagogi; "Dreamboat" MTTning direktori, Toshkent.

## **Taqrizchi:**

**K.T. Olimov** – tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirining birinchi o'rindbosari

*COVID-19 pandemiyasi sharoitida "COVID-19 pandemiyasi davrida bolalarning farovonligi va rivojlanishini ta'minlash" O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini qayta tiklash bo'yicha ko'rsatmalar (maktabgacha ta'lif tashkilotlari xodimlari uchun) Maktabgacha ta'lif vazirligi huzuridagi o'quv uslubiy ishlarni muvofiqlashtirish kengashi yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi (2020 yil 17 iyuldagи 1-sonli bayonnomasi).*

# MUNDARIJA

KIRISH .....	28
"COVID-19 pandemiya davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlari hodimlarini dastlabki o'qitish" TRENING DASTURI .....	30
MAQSADLAR VA VAZIFALAR .....	31
1-SESSIYA. Bolalar o'qitishni tashkil etish .....	32
2-SESSIYA. Ota-onalar bilan aloqa o'rnatish va ularni qo'llab-quvvatlash .....	36
3-SESSIYA. Pedagoglar va rahbarlarni doimiy qo'llab-quvvatlash .....	38
Foydalanillangan adabiyotlar .....	41
ILOVALAR .....	42
1-ILOVA. To'liq kunlik bolalar guruhida kundalik tartibni moslashtirish .....	42
2-ILOVA. Qo'llarni yuvish ko'nikmalarni rivojlantirish uchun plakat va qo'shiq misoli .....	50
3-ILOVA. Misollar: bolalarni gigiena o'qitish uchun plakatlar .....	51
4-ILOVA. Moslashtirilgan o'yinlarning misollari.....	52
1. Kontaktsizli salomlash .....	52
2. Gigiyyena mahoratini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	53
3. Ochiq havoda kichik guruhlar o'yinlari.....	54
4. Qo'rqish yoki stress ahvolda bo'lgan bola bilan tarbiachi qanday ishlash lozim .....	56
5. Pandemiya haqida bolalar uchun tarbiyachi qanday ma'lumot beradi?.....	57

## QISQARTIRISHLAR RO'YXATI

JSST	Jahon Sog'lijni saqlash tashkiloti
MTT	Maktabgacha ta'lim tashkiloti
MT	Maktabgacha ta'lim
DPM	Davolash va profilaktika muassasalari
O'zR MTV	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi
O'zR SSV	O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi
SEFSSX	Sanitariya-epidemiologik farovonlik va sog'lijni saqlash xizmatlari
UNICEF	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi

## KIRISH

COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab bolalarning ta'lim, himoya va farovonligi uchun favqulodda vaziyatga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda koronavirus tarqalishining oldini olish bo'yicha maxsus respublika komissiyasi qarori bilan karantin cheklovlarni yumshatish dasturi amalga oshirilmoqda, ushbu dastur sog'liqni saqlash, ijtimoy sog'liqni saqlash tizimi<sup>1</sup> va maktabgacha ta'limgagi epidemiologik omillari xavflarni diqqat bilan baholashga asoslangan.

Ko'plab tashkilotlar, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) faoliyatini bosqichma-bosqich qayta tiklashni rejalashtirilmoqda.

UNCIEF O'zbekiston hukumatlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qayta tiklash bo'yicha qarorlar qabul qilishda faol ish olib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishini to'liq yoki qisman tiklash to'g'risida qaror qabul qilish, maktabgacha yoshdag'i bolalarning ta'limaldi, rivojlanishida va sog'lig'ida, shuningdek COVID-19 ning yangi epidemiyasini oldini olishda, potentsial xavflarni bolalar, pedagoglar, xodimlar va butun jamiyat uchun maksimal foyda olish uchun baholash kerak.

Ushbu qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) uchun ishlab chiqilgan, chunki ular tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'qitish usullari jihatidan noyobdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) faoliyatini qayta tiklash masalasi, birinchi navbatda, bolalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ota-onalarning ishlashga qaytish imkoniyatini ta'minlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi kerak. Qo'llanmada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) faoliyatini qayta tiklash asosiy printsiplari, shuningdek, uch yoshdan katta bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) faoliyatini qayta tiklashda hisobga olinadigan amaliy chorallarga alohida e'tibor qaratilgan.<sup>2</sup>

Umumiyligi aholining xavfsizligi va salomatligi uchun, faoliyati qayta tiklanishi bilan bog'liq bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarga (MTT) tashrif buyurganda infeksiyaning xavfli omillarini hisobga olgan holda, ma'muriy organlar oilalarning ehtiyojlarni, MTT tarbiyalanuvchilarning farovonligi va rivojlanishini (shu jumladan ularning ijtimoiy chetlashuvidan jiddiy ta'sir ko'rsatgan psixososiologik farovonligi) baholashlari kerak.

1 Considerations for school-related public health measures in the context of COVID-19, May 2020. <https://www.who.int/publications-detail/considerations-for-school-related-public-health-measures-in-the-context-of-covid-19>

2 Ushbu qo'llanmada bayon etilgan printsiplar va choralar uch yoshdan katta bolalarga xizmat qiluvchi MTT larning faoliyatini qayta tiklash uchun ham qo'llanilsa, chora-tadbirlar jismoniy masofa va g'amxo'rlik shuningdek rivojlanishni qo'llab-quvvatlash o'rtaсидаги мувозанатга ерішіш масаласынін қамраб олади.

## Kimlarning o'qitilishi kerak bo'ladi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) barcha xodimlari: MTT direktori, pedagog, tibbiy va texnik xodimlar, COVID-19 pandemiya davrida o'quv jarayonini tashkil qilishning asosiy printsiplari bo'yicha o'qitilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) direktori xodimlarning doimiy kasbiy qo'llab-quvvatlashi bilan bir qatorda, ularning psixologik sog'ligini saqlashi va ularning psixiijtimoiy ehtiyojlariga e'tibor berishi shart.

Shubhasiz, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) faoliyatini qayta tiklash bilan, xodimlar COVID-19 pandemiya davrida dasturlarni samarali moslashtirish va ta'lim sifatini ta'minlashga yordam beradigan qo'shimcha ma'lumotlar va ko'rsatmalar olish uchun tajriba va manbalar bilan o'rtoqlashish uchun ko'proq imkoniyatlarga muhtoj bo'ladi.

Bu masala keyingi treninglar, video darslar, videokonferensiyalar va boshqalarni tashkil etish orqali hal qilinadi.

## "COVID-19 pandemiya davrida məktəbgachanın təlim təşkilətləri xodimlарını dəstləbki o'qitish" TRENING DASTURI

### "COVID-19 PANDEMIYA DAVRIDA BOLALARINING FAROVONLIGINI VA RIVOJLANISHINI TA'MINLASH"

Sessiyaning nomi	Davomiyligi
<b>1. Bolalarni o'qitishini tashkillashtirish</b>	<b>30 daqiqa</b>
1.1. Məktəbgachanın təlim təşkilətləri faoliyatını qayta tiklash bo'yicha boshqaruv tamoyillari.	10 daqiqa
1.2. O'quv dasturlarini moslashtirish: O'qishning o'yin tarzda shakllarini rivojlantirish va masofani saqlashga qaratilgan ijodiy pedagogik yondashuvlar. Toza havoda mashg'ulotlar va mashqlarni tashkillashtirish.	10 daqiqa
1.3. O'quv materiallardan xavfsiz foydalanish: O'qitishda o'yinchoqlar va didaktik materiallardan foydalanish. O'yinchoqlar va materiallarni ishlatish / yuvish va saqlash	10 daqiqa
<b>2. Ota-onalarni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqani ta'minlash</b>	<b>10 daqiqa</b>
Məktəbgachanın təlim təşkilətlərində (MTT) və uyda o'tkazılardıqan COVID-19 profilaktikası choraları to'g'risida ota-onalara ma'lumot berish. Bolalarni qabul qilish va uyga ketish tartibi, ota-onalar bilan muloqotni ta'minlash va muvofiqlashtirish.	10 daqiqa
<b>3. Xodimlarni qo'llab-quvvatlash va o'qitish choralari</b>	<b>10 daqiqa</b>
<b>4. Məktəbgachanın təlim təşkilətlərinin (MTT) faoliyatını qayta tiklash to'g'risida videolavha. UNICEF va MTV</b>	<b>10 daqiqa</b>

## MAQSADLAR VA VAZIFALAR

**Ushbu qo'llanmaning maqsadi**, COVID-19 pandemiya davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) faoliyatini qayta tiklashdan oldin yoki uning birinchi oyi faoliyati davomida xavfsiz va qulay muhitni ta'minlash uchun asosiy tamoyillar va amaliyotlarni yoritib berishdir.

### Vazifalar:

- Sog'liqni saqlash va gigiyena, shuningdek, maktabgacha yoshdagি bolalarni tarbiyalashda o'yin uslubiga asoslangan holda tarbiyalash orqali bolalarning yaxlit rivojlanishi va farovonligini qo'llab-quvvatlash tamoyillariga rioya qilish.
- Tegishli strategiyalarni amalga oshirish va mavjud o'quv dasturlarini moslashtirish, shuningdek, hamkorlik va ochiq aloqa orqali ota-onalarning muammolariga e'tibor berish va ularni hal qilish.

### Kutilayotgan o'quv natijalari

#### O'qitilishdan so'ng qatnashchilar:

- Pandemiya davrida maktabgacha ta'lim tashkilotining (MTT) faoliyatini tashkil qilish bo'yicha boshqaruv tamoyillarni bilib olishadi va ulardan foydalanishadi.
- Pandemiya davrida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) faoliyatini qayta tiklash jarayonida bolalar, oilalar va xodimlar duch keladigan bir qator muammolarni hal qilish uchun yagona yondashuvni qo'llay olishadi.
- Erta yoshdagи bolalarning salomatligi, gigienasi va ta'lim masalalari bo'yicha bilim va ko'nikmalar darajasini oshirish orqali bolalarning yaxlit rivojlanishi va farovonligi yondashuvlaridan foydalana oladi.
- Mavjud bo'lgan o'quv rejalarini moslashtirish va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
- MTT faoliyatini qayta tiklashni tashkil etish va bolalar xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha qo'shma qarorlar qabul qilish uchun kuzatuv kengashlari va oilalar bilan bирgalikda faoliyat va hamkorlikni tashkil eta oladi.

#### Maqsadli auditoriya:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagogik, tibbiy va texnik xodimlari.

## 1-SESSIYA. BOLALAR O'QITISHNI TASHKIL ETISH

### 1.1. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI QAYTA TIKLASH BO'YICHA BOSHQARUV TAMOYILLARI

Boshqaruv tamoyillar viloyat idoralariga, tuman maktabgacha ta'lismi bo'limlariga, maktabgacha ta'lismi tashkilotlari direktori va xodimlariga maktabgacha ta'lismi tashkilotini qayta tiklash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda yordam berishi mumkin.

Ushbu tamoyillar **maktabgacha yoshdagি bolalar uchun samarali sog'liqni saqlash, gigiena, xavfsizlik va ta'lismi o'tasidagi muvozanatni ta'minlash** zaruriyatiga asoslanadi.

- 1. Bolalarda qo'rquv hissini yaratmasdan chora-tadbirlarni ta'minlash.** Bolalarning xavfsizligini ta'minlash choralarini juda muhim, ammo maktabgacha ta'lismi tashkilotlari davolash muassasalariga o'xshamasligi kerak. Pandemiya davridagi karantin oylari bolalar uchun tashvishli edi, shuning uchun bolalar har doimgidan ko'proq **do'stona, xavfsiz va rahbatlantiruvchi muhitga** muhtoj bo'ladilar. Maktabgacha ta'lismi tashkiloti (MTT) faoliyatini qayta tiklash, bolalarni to'g'ri himoya qilishni ta'minlashda, bolalarni iloji boricha odatiy, tanish hayot tarziga qaytarishga olib keladi.
- 2. Bolalarning o'rganishi va o'ynashi uchun qo'llab-quvvatlovchi / do'stona, xavfsiz va rag'batlantiruvchi mavzularni rivojlantirish muhiti bilan ta'minlash.** Bolalarga yo'naltirilgan o'quv dasturini, rejalarini, o'qitish usullarini jismoniy masofani hisobga olgan holda, xavfsizlikni isbotlagan profilaktika chorasi sifatida moslashtirish kerak. Biroq, bolalar o'tasida xavfsiz masofani saqlash barcha sohalarda bolaning yaxlit rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy kompetentsiyalarni, ijtimoiy ishtirokni, integratsiyalashgan ta'lismi va o'yinlarni rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi kerak.
- 3. Gigiena qoidalarini belgilash xatti-harakatlarni va amaliyotlarni (qo'l yuvish, yo'tal va aksirish paytida og'iz va burunni yopish; maktabgacha yoshdagи bolalar orasida jismoniy masofani saqlash)** o'quv dasturiga va kundalik muntazam ravishda kiritish orqali o'rnatish (ushbu ko'nikmalar hayot davomida ularga foydali bo'ladi).  
Pedagog bolalar bilan qo'llarini to'g'ri yuvish, bu amaliyotni namoyish etish va kun davomida bolalar ushbu ko'nikmalarni amalda qo'llashlari uchun alohida vaqtни ajratishi kerak. (Pandemiya COVID-19 davrida MTT faoliyatini tashkil etish uchun vaqtinchalik sanitariya-gigiena talablari: "O'quvchilar/xodimlarning qo'llarini gigienik tozalash rejasiga ishlab chiqiladi (har soatda sovun bilan yuvish yoki antiseptik spirtli eritmalar bilan tozalash, har bir ovqatdan oldin va keyin, hojatxonaga kirib chiqqandan so'ng, o'yinlardan so'ng va sayrdan kelgandan so'ng sovun bilan qo'llarni majburiy yuvish"). (2-ilova).
- 4. Bolalarga muayyan himoya choralarini qo'llash va o'z sog'ligini ta'minlashda, shuningdek, tengdoshlar, pedagoglar, oila va jamoat sog'ligini ta'minlashda qanday rol o'ynashlarini tushuntirish uchun o'quv mashg'ulotlaridan foydalanish kerak.** Nima uchun ba'zi o'yinchoqlar olib tashlanishini, derazalar tez-tez ochilib xonalarni ventilyatsiya qilinishi va hokazolar, toza havoda qanday o'yinlarni xavfsiz o'ynashlari mumkinligi bolalarga tushuntirilishi lozim. Tarbiyachi bolalarga atrof-muhit xavfsizligini nazorat qilishga yordam berishi kerak.

5. Bolaning uy izolyatsiyasidan maktabgacha ta'lif tashkilotiga yengil o'tishini ta'minlash uchun oilalar bilan hamkorlik va ochiq aloqalarni o'rnatish lozim. Vahima va qo'rquvni bartaraf etish, bolalarni MTTga kelishi va ketishining ijobiy jarayonini ta'minlash, shuningdek, uyda bolalar uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan sog'liqni saqlash xavfsizligini ta'minlash uchun oilalar bilan ijobiy va ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlash. Bunga oilalarni himoya qilish choralari to'g'risida xabardor qilish va ota-onalarni ushbu choralarni samarali amalga oshirishlarini jarayoniga jalb qilish kiradi.
6. **Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining (MTT) xodimlarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlash.** Maktabgacha ta'lif sifatini ta'minlash uchun MTT xodimlari va tarbiyachilariga professional yordam ko'rsatish. Ular sog'liqni saqlash sohasidagi moslash-tirilgan ko'rsatmalariga rioya qilish va pedagogikani rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak. O'quv mashg'ulotlarini moslashtirishda amaliy yordam ko'rsatishni ko'rib chiqish, pedagoglar o'rtasida muntazam kuza-tishlarni tashkil etish, bu esa o'z tajribalarini almashish va muhokama qilish imkonini beradi.

## 1.2. MAKTABGACHA TA'LIMNING O'QUV DASTURLARI VA REJALARINI MOSLASHTIRISH

**REJALASHTIRISH** – maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif-tarbiyaviy ishlar mazmu-nining asosi hisoblanadi. **O'quv-tarbiya faoliyati rejasি** bolalar bilan ishslashda asosiy hujjat bo'lib, muayyan vaqt davomida muayyan vazifalar, kontent, shakllar va ish uslublarini hamda pedagogning ta'lif-tarbiya jarayonida harakatlar ketma-ketligi algoritmini belgilaydi. ("Ilk qadam" nomli davlat o'quv dasturi, 4.1-band. *Talim-tarbiya faoliyatini rejalahtirish*).

**Ta'lif tadbirlari rejasini tuzishda maktabgacha ta'lif tashkilotlarining pedagoglari quyidagilarga asoslanadi.**

1. Erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga davlat talablari.
2. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" nomli davlat o'quv dasturi.

**Talim-tarbiya faoliyatida rejalahtirishning quyidagi turlari ajratiladi:**

- *yillik tematik;*
- *haftalik.*

Haftalik ish rejasи bolaning hayoti va atrof-muhitidan kelib chiqadigan har qanday o'zgarishlarni, shu jumladan mintaqadagi COVID-19 pandemiyasida o'zgaruvchan epidemiologik vaziyatni o'zgartirishni hisobga olgan holda turli xil va moslashuvchan bo'ladi.

Rejalahtirishda ish ritmini belgilaydigan va bolani bir faoliyatdan boshqasiga yengil o'tishga yordam beradigan kun tartibini hisobga olish kerak.

"Bolalar uchun kun tartibi"ning rejalahtirilgan faoliyat va uning vaqt o'zgartirilishi mumkin. Masalan, agar pedagog guruhsda ishslashni rejalahtirayotgan bo'lsa, lekin bolaning sog'lig'i xavfsizligi uchun u toza havoda o'tkazilishi mumkin. (1-ilova)

**O'quv rejalarini moslashtirish**, o'quv vazifasining mazmuni yoki murakkabligini o'zgartirmasdan, sharoit va talablarning o'zgarishiga qarab, moddiy ta'minot xususiyatini o'zgartiradi.

## Bolalarning farovonligi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar

a) Pandemiya davrida bolalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun o'yin shakllarini rivojlantirish uchun **kundalik muntazam / kun tartibini**, o'quv dasturini moslashtiring va ijodiy pedagogik yondashuvlardan foydalaning (1-*llova*), masalan, koronavirus infeksiyasini oldini olish va tarqatish bilan bog'liq bolalar tajribasini oshirish uchun kichik loyihalar orqali o'qitish; bolalarni pandemiya, sog'liqni saqlash choralar haqida bilishlariga yordam berish uchun o'quv mashg'ulotlaridan foydalanish; bolalarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, qo'rquvni/stressni bartaraf etish va salomatlikni saqlashga yordam berish uchun xayoliy o'yinlardan foydalanish.

b) **Bolalar uchun qulay/do'stona, xavfsiz va rag'batlantiruvchi ta'limga muhitini ta'minlang.** Jamiyat tuyg'usini saqlagan holda, bolalar o'rtasida jismoniy (ijtimoiy) masofa kamida 1 metr bo'lishi uchun o'quv maydonini tashkil qiling. Kun davomida har 2 soatda xonalarni ventilyatsiya qiling (COVID-19 Pandemiya davrida maktabgacha ta'limga tashkilotlarining (MTT) tadbirlarini tashkil qilish uchun vaqtinchalik sanitariya-gigiena talablari);

*Masalan:* guruhda, o'yin maydonchasida, turli materiallardan (skotch, rangli doiralar, bolalar bilan yurish uchun tutqichli arqonlar va boshqalar)dan foydalanib, turish va o'tirish uchun bo'lgan joylarini belgilang; bolalarga har kuni ochiq havoda bo'lish, rivojlanish markazlarida toza havoda tabiiy muhitda o'yin o'ynash va turli tadbirlarni o'tkazish, imkoniyatini bering; ochiq joylarda ozod, kengaytirilgan va pedagogotomonidan boshqariladigan o'yinlarni qo'llab-quvvatlashni tashkil eting; bolalarni kichik guruhlarga bo'ling; **MTT ning boshqa guruhlari bilan aloqa o'rnatishga yo'l qo'y mang.**

c) **Mashg'ulotlarni va o'qitishni ochiq havoda tashkil qiling.** Toza havoda ta'limga (mashg'u-lotlar va tadbirlar) ga o'tish uchun o'quv rejalarini va kun tartibini moslashtiring. *Ochiq joylarda viruslarning konsentratsiyasi ancha past* va binoning tashqarisida bolalarni o'qitish bino ichidagi xonalarda o'qitishga qaraganda xavfsizroqdir. "Yashil" bolalar bog'chalari; "Ekologik bog'lar"ning xalqaro tajribasidan va / yoki ularning ochiq havoda beriladigan ta'limga dasturlaridan foydalaning.

*Masalan,* tashqi uskunalar va tabiiy resurslarni o'quv materiallari sifatida (ochiq havoda to'garak o'tkazish, tabiatni o'rganish va h.k.) foydalanib, rivojlanish markazlarini tashkil eting, ochiq havoda jismoniy faoliyat bilan bolalarni tarbiyalashning integratsiyasini kengaytiring (avtomobil o'yinlari, raqs, sport mashg'ulotlari va h. k.).

d) Shaxsiy mashg'ulotlar va kichik guruhlarda bolalarni galma-galdan o'qitishni qo'llang. Shaxsiy ta'limga faoliyati va kichik guruhlardagi o'zaro ta'sirlar o'rtasidagi muvozanatni saqlang; individual va guruhdagi o'zaro ta'sirlarni birlashtirish uchun ijodiy yondashuvdan foydalaning (masalan, shaxsiy fikrlash / ish, keyin esa "do'stingizga aytинг" shaklida ishlarni umumlashtiring).

e) **O'yin mashg'ulotlaridan foydalanishni davom etish,** ammo kerakli moslashuvlar bilan. Bolalarga stressni engish va sog'ligini saqlash uchun o'yinlardan foydalanish.

Har bir bola o'z vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan o'yinlar va loyihalar mos keladi (o'z navbatida, birma-bir yoki ma'lum bir vaqt ichida)

*Masalan,* butun guruh bilan hikoya yarating: bolalar navbat bilan o'zlarining ijodlarini umumiylashtiring (syujetga qo'shishadi va hokazo).

- e) Ijtimoiy masofa talablariga javob beradigan ijodiy va sport o'yinlari, qo'shiq aytish, shaxsiy san'at loyihalari va boshqalarga e'tibor bering; butun guruh uchun baland ovozda interaktiv o'qish va ko'ngilochar tadbirlardan foydalaning.  
*Masalan, pedagog ishtiroqida qo'g'irchoq teatri yoki yangi qo'shiqni o'rganish.* (4-ilova).

### **1.3. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA (MTT) O'QUV MATERIALLARIDAN XAVFSIZ FOYDALANISH**

Virus, havoda tomchilar shaklida uchishi mumkin, masallan, kimir kasal bo'lib, yo'talganda, aksirganda yoki biron bir narsaga, shu jumladan o'quv materiallari / o'yinchoqlarga tekkanda yuqishi mumkin. Shu sababli, "COVID-19 pandemija davrida maktabhacha ta'lif tashkilotlari (MTT) faoliyatini tashkil qilish uchun vaqtinchalik sanitariya-gigienik talablar" ga muvofiq o'yinchoqlarni dezinfeksiyalash va yuvish juda muhimdir.

**a) Didaktik materiallar, o'yinchoqlarni qayta ko'rib chiqish.**

*Tozalash va dezinfeksiyalash uchun qiyin bo'lgan o'yinchoqlar va materiallar olib tashlanishi shart.* Bolalarga o'yinchoqlar va materiallarni og'ziga solmaslik kerakligini tushuntiring.

*Masalan, o'yin mashg'ulotlari uchun bo'lgan (yumshoq, plyush, mato va boshqalar) murakkab dezinfeksiyali o'yinchoqlar/narsalarni olib tashlash kerak; bolalar kitoblari va boshqa qog'oz materiallari infeksiyani tarqatishga xavfi yuqori emas.*

- b) Har bir bola** uchun o'quv va ijodiy faoliyatda foydalanishi mumkin bo'lgan, qaychi, qalam va boshqa ish yuritish buyumlari bilan *maxsus belgilangan shahsiy to'plamlarni yarating*. Bu individual ijodkorlikni rag'batlantirishning yaxshi usulidir. Bolalar kitoblari va boshqa qog'oz materiallari, masalan jurnallar, konvertlar va boshqalar infeksiyani yuqtirishda xavfli deb hisoblanmaydi va qo'shimcha tozalash yoki dezinfeksiyalash muolajalarini talab qilmaydi.
- c) Ishlov berish va dezinfeksiyalashdan oldin o'yinchoqlarni guruhlar o'rtaida aralash-tirmang.**

## 2-SESSIYA. OTA-ONALAR BILAN ALOQA O'R NATISH VA ULARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

Maktabhacha ta'lif tashkilotlar (MTT) va oilalar o'rtaсидаги mustahкам hamkorlik va kuzatuv kengashlarining samarali faoliyati orqali COVID-19 pandemiya davrida bolalarning farovonligi va rivojlanishini ta'minlashga ijobjiy hissani qo'shadi.

Hamkorlik, har ikki tomonning huquq va majburiyatları borligini, bir-birlarini vakolatli deb bilishini va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashini anglatadi. Hamkorlik, pedagoglar o'zları ishlayotgan oilalarning qadriyatları, hayot tarzi va xususiyatlarını tan olishlari va qadrlashlarini talab qiladi.

"Ilk qadam" maktabgacha ta'lif tashkilotining Davlat o'quv dasturida (2-bob, 5-band) ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning quyidagi shakllari ko'rsatilgan:

- *ota-onalarning maktabgacha ta'lif tashkilotiga bo'lgan umidlarini hisobga olish;*
- *ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi haqida ma'lumot berish;*
- *ota-onalarni ta'lif-tarbiya faoliyatida ishtiroki uchun jalg etish va ularning faol ishtirok etishlari;*
- *ota-onalarning maktabgacha tashkilot hayotida ishtirok etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash.*

Pandemianing hozirgi epidemiologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitida MTTning oila bilan o'zaro munosabati, maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatuv kengashlarining faol ishtirokida bolalar xavfsizligi va sog'ligini saqlashni ta'minlash bo'yicha maktabgacha ta'lif tashkiloti faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

### Ota-onalar bilan aloqa va muloqotni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar

- ***Ota-onalar va jamoatchilikni maktabgacha ta'lif tashkilotining qayta tiklash choralarini to'g'risida xabardor qiling va oilalarda, mahallalarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan COVID-19 holatlari to'g'risida xabardor qilishda hamkorlik qilishni so'rang.*** Agar biron bir oila a'zosi COVID-19 alomatlari borligi haqida shubha qilinsa, bolani uyda qoldirib, MTTga xabar berishni iltimos qiling.
- ***COVID-19 alomatlari bo'lgan bolalar va maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlari tomonidan "Agar o'zingizni yomon his qilsangiz, uyda qoling" degan siyosatiga rivoq qilinishini ta'minlang.*** Iloji bo'lsa, uy sharoitida yordam berish yoki ruhiy-ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni yo'naltirish uchun hududiy sog'liqni saqlash muassasalari, oila va maktabgacha ta'lif tashkiloti o'rtasida aloqa o'rnatilishi kerak.
- ***Oila a'zolari va bolalar o'rtasida qo'rquv/vahima qo'zg'atmaydigan bolalarni qabul qilish va uyga jo'natishning aniq tartibini tayyorlang;*** bolalar maktabgacha ta'lif tashkilotida uzoq vaqt turgandan keyin ota-onalariga va pedagoglariga ishonishlari kerak. O'z-o'zini izolyatsiya qilganidan so'ng, erta yoshdagi bolalar uchun ta'lif markazining ostonasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan stress va qo'rquvni kamaytiring.

- **Guruhiingizdagи bolalarnи MTT hududiga kirishda qabul qilishni tashkil qiling.** Iloji bo'lsa, bolalarni qabul qilish va parvarish qilish vaqtida ota-onalar bilan ko'plab bolalarni to'planishini bartaraf eting. Buning uchun guruhlarga bolalarni qabul qilish va uyga jo'natish jadvalini tuzish tavsiya etiladi. Ideal holda, bolani muassasaga olib kelish va undan olib ketish uchun bir xil ota yoki ona/tayinlangan shaxs bo'lishi kerak.
- **Ota-onalar uchun axborot varaqasini yarating va ularga tanishtiring.** Oilalar COVID-19 bo'yicha epidemiologik vaziyatni hisobga olgan holda, bolalar MTT ga borish yoki bormasligi to'g'risida qaror qilishlari uchun, axborot varaqasida quyidagilar bo'lishi kerak: mintaqadagi epidemiologik vaziyatning asosiy tibbiy ko'rsatkichlari (COVID-19 belgilari), koronavirusning boshqa shaxslarga tarqalishini oldini olish bo'yicha bolalar va xodimlarni himoya qilish choralari.
- **Ota-onalarning farzandlari uchun stress va tashvishlarini kamaytirish uy va MTT o'rtaqidagi uzluksizlikni ta'minlash uchun, aloqa va muvofiqlashtirish mexanizmlarini mustahkamlang,** ota-onalar bilan doimiy muloqotlar va o'zaro aloqalarni rivojlantiring; Ota-onalar, maktabgacha tarbiya tashkilotlari, klinikalar va mahallalar uchun foydali plakatlar va ko'rgazmali vositalardan foydalaning. Masalan, MTV va UNICEF tomonidan ota-onalar uchun ishlab chiqarilgan videofilm, broshura, plakatlar va boshqalar.

### 3-SESSIYA. PEDAGOGLAR VA RAHBARLARNI DOIMIY QO'LLAB-QUVVATLASH

O'zbekiston maktabgacha ta'lif tashkilotlarning (MTT) faoliyatini qayta tiklamoqda. O'z-o'zini izolyatsiya qilish rejimidan maktabgacha ta'lif tashkilotlarini qayta tiklashga samarali o'tishning muhim qismi MTT xodimlari va rahbarlarini doimiy professional qo'llab-quvvatlanish kerak.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori, pedagogik, tibbiy va texnik xodimlar ishni qayta boshlashdan oldin yoki birinchi oy davomida o'qishdan o'tishlari kerak.

Xodimlar o'zlarini va bir-birlarini qanday himoya qilishni bilishlari uchun, ularni xabardor qilib turish kerak; COVID-19 infeksiyäsining birinchi alomatlari haqida kimga / qaerga xabar berish kerak. Pandemiya davrida barcha MTT xodimlarining asosiy vazifalaridan biri bolalar uchun qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash zarurati bilan amaliy va oqilona darajada ehtiyojkorlik bilan muvozanatni saqlashdir. Haddan tashqari gigiena muammolari bolalar uchun zararli bo'lishi mumkin va qo'rinchli muhit kasallik xavfini oshiradi. Shuning uchun hamma harakatlarimizda sog'lom fikr bo'lishi lozim.

MTT direktorlari pedagoglarga bolalarning sog'ligiga va ularning har tomonlama rivojlanishiga, shuningdek, oilalarni qo'llab-quvvatlashga va ular bilan muloqot qilishga yordam beradigan hissiy jihatdan qulay moslashuvchan o'quv muhitini yaratishda doimiy yordam beradi. Bu jarayon hamma uchun oson bo'lmaydi va pedagoglar va ma'murlarning kuchli jamoaviy ishi muvaffaqiyatning muhim omilidir.

#### 3.1. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLAR (MTT) XODIMLARINI O'QITISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH

O'qitish bosqichlari:

- A. *Faoliyatini qayta tiklashdan oldin yoki uning birinchi oyi davomida dastlabki trening o'tkazish;*
- B. *Maktabgacha ta'lif tashkilotlar (MTT) ishining tiklanishidan 4-6 hafta o'tgach, keyingi qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish;*
- C. *Zaruriyatdan kelib chiqib, 2 oydan song va undan keyin qo'shimcha munozaralar o'tkazish.*

##### A. Faoliyatni qayta tiklashdan oldin dastlabki trening

Maktabgacha ta'lif tashkiloti (MTT) direktori va xodimlari Maktabgacha ta'lif tashkiloti (MTT) faoliyati qayta tiklashdan oldin yoki faoliyatining birinchi oyi davomida dastlabki treningdan o'tishlari kerak. Ushbu trening qisqa davomiyligi bilan farq qilishi mumkin, ammo hech bo'lganda ushbu treningni mavzularini dastlabki qamrovni ta'minlashi shart.

Maktabgacha ta'lif tashkilotalar (MTT) direktorlari alohida o'quv mashg'ulotlari, onlayn guruhlari orqali pedagoglar uchun berilgan terning bilan bir xil tematik tarkibga ega bo'lgan qo'shimcha konsultatsiyalardan o'tishi kerak, ammo ma'muriy jihatlarni hisobga olgan holda.

Dastlabki trening davomida asosiy e'tibor zarur ma'lumot/ko'rsatmalar, tavsiyalar berishga, tegishli me'yoriy-huquqiy bazani o'rGANISHGA qaratilishi mumkin.

## B. Keyingi qollab-quvatlash

MTT bolalar bilan ishslashni boshlaganidan so'ng, xodimlar, albatta, tajriba almashish, savollar berish va dasturlarni samarali tarzda moslashtirishga yordam beradigan qo'shimcha ma'lumot/tavsiyalar olish uchun qo'shimcha imkoniyatlarga muhtoj bo'ladi. Kontekstga qarab, keyingi o'qitish 4-6 hafta davomida belgilanishi mumkin..

## C. Qo'shimcha munozaralar

Qo'shimcha munozaralar 2 oy yoki undan keyingi davrlarda va kerak bo'lganda tezroq vaqtarda o'tkaziladi. Keyingi sessiyalar xodimlar o'rtasida ma'lumot almashish uchun ko'proq vaqt ajratish va o'z ishlarida nima qilgan, ko'rgan va duch kelgan muammolar bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash uchun murojaat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Buning uchun turli xil raqamlili yondoshuvlar (onlayn ta'lif) ishlatilishi mumkin.

## 3.2. O'QITISH USULLARI

Xodimlar aniq ma'lumotlarga, shuningdek o'zlarining tashvishlari va muammolarini muhokama qilish imkoniyatlariga muhtoj bo'ladir. Ushbu ehtiyojlar usullarning muvozanatini talab qiladi, jumladan, o'quv qo'llanmalari, videokonferentsiyalar, byulletenlar Internetda yoki MTT veb-saytida yuklab olish, mini-ma'ruzalar, ko'rgazmali namoyishlar, videolar, interfaol onlayn suhbatlar, juft muhokamalar va fikrlash uchun savollar xodimlarga murakkab muammolarni o'rGANISHGA yordam berish uchun mo'ljallangan. Buning uchun turli xil raqamli yondoshuvlardan foydalanish mumkin.

## 3.3. ISH XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

**Sog'gom hayot tarzi va gigiena** bo'yicha doimiy mashg'ulotlar va xodimlarni **har kuni** qo'llab-quvvatlash (*masalan, tozalash usullari; niqoblar taqish va qo'llarni yuvish; bolalarga yangi gigiena qoidalari haqida ma'lumot berish*).

**Ovqat tayyorlash va xizmat ko'rsatishda xavfsizlik va gigiena.** Oziq-ovqat bo'limi ishchilar uchun tegishli xavfsizlik choralarini ko'rish; ovqat tayyorlashga mas'ul bo'lganlar uchun doimiy eslatmalar. Ovqatlanish paytida xavfsiz masofani ta'minlash; bolalarga oziq-ovqat bilan bo'lishmasigni eslatish va h.k.

**Kasal bolalar va xodimlarga nisbatan munosabat,** kasal bolalarni aniqlash va izolyatsiya qilish tartib-qoidalalarini bilish; buxgalteriya hisobi, xodimlarni alomatlarni qanday nazorat qilish haqida xabardor qilish; kasal xodimlarni almashtirish sxemasi mavjudligi; bola kasal bo'lib qolgan holatlar uchun tartib-qoidalarni o'rnatish va boshqalar.

### Maktabgacha ta'lif tashkilotlar (MTT) xodimlarini o'qitish va qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

- Yoshi katta yoki surunkali kasalligi tufayli katta xavfga ega bo'lgan maktabgacha ta'lif tashkilotlari (MTT) xodimlari va bolalarini himoya qilish uchun me'yoriy bazani ko'rib chiqing, yo'q bo'lgan pedagoglarni almashtirish rejasiga imkon qadar, individual

## COVID-19 pandemiya davrida bolalarning farovonligini va rivojlanishini ta'minlash

sharoitlarni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borolmaydigan bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun masofaviy o'qishni davom ettirish rejali bilan tanishib chiqing. Ta'til berishda moslashuvchan amaliyot imkoniyatlarini muhokama qilish kerak.

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) xodimlarini "COVID19 Pandemiya davrida maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish uchun vaqtinchalik sanitariya-gigiena talablari" da ko'zda tutilgan gigiena qoidalari va xavfsizlik choralariga riosa qilishga o'rnatish; agar kerak bo'lsa, MTT ishchilari sonini ko'paytirish kerak. Texnik xodimlar dezinfeksiya tadbirlarni o'tkazish bo'yicha o'qitilishi kerak.
- Pedagoglarga o'quv dasturining samarali moslashuvi va bolalarning kundalik muntazamligini ta'minlash, shu jumladan, guruhdagi barcha o'yinlar va mashg'ulotlar qanday amalga oshirilishini, toza havoda mashg'ulotlar qanday o'tkazilishini va hokazolarni qayta ko'rib chiqish; (1,4-ilova)
- Kerak bo'lsa, bolalar uchun psixologik sog'liqni saqlash va psicho-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha pedagoglarni tayyorlashni ta'minlash. Pedagoglarga bolalarning ko'pchiligi kattalar kabi hayajon va qo'rquv holatida ekanligini va dastlabki bosqichda o'tish qiyin bo'lishini tushunishga yordam berish. Trening pedagoglarning bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi asosiy ijtimoiy va hissiy ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.
- Pedagoglar yoshga bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar va kognitiv o'zgarishlarni aniqlash va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun o'qitilishi lozim.
- Xodimlarga o'z sog'ligini va bola salomatligini nazorat qilish, shuningdek, COVID-19 oldini olish bo'yicha tavsiyalarga (shu jumladan, ijtimoiy masofaga riosa qilish va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish) riosa qilish mas'uliyatini o'rgating.
- Pedagoglar va xodimlar bilan doimiy aloqada bo'ling va ularning ruhiy salomatligi va psicho-ijtimoiy ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlang.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2019 yil 17 dekabrdagi ZRU-595 "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun.
2. O'zbekiston Respublikasining erta va maktabgacha yoshdagi bolalarini rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018-y.
3. "Ilk qadam" nomli maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi. 2018-y. Grosheva I., Evstafieva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Djanpeisova G., Isxakova M.
4. SanPiN 0355-18 "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotining tar-kibi, tuzilishi va ishlash tartibi uchun sanitariya-gigiena talablari"
5. SanPiN0355-18-ga kiritilgan qo'shimchalar "COVID-19 Pandemiya davrida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mazmuni, joylashishi va ishlashi uchun sanitariya-gigiena talablari".
6. Guidance for Re-Opening of Preschools and Kindergartens post-COVID-19  
<https://www.unicef.org/romania/media/2616/file> ;
7. Framework for reopening schools, April 2020  
<https://www.unicef.org/media/68366/file/Framework-for-reopening-schools-2020.pdf>

## TO'LIQ KUNLIK BOLALAR GURUHIDA KUNDALIK TARTIBNI MOSLASHTIRISH

